

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



***Journal of Preschool  
Education***

***The faculty of pre-school  
education***

## **INTERFAOL O'YIN YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH**

**Rayimkulova Fotima**

**Rayimkulova Zuhra G'ayratjon qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishda o'yin faoliyatining ahamiyati yozilgan bo'lib, hozirda ingliz tili dunyo tili bo'lib bormoqda shu bois uni uzliksiz ta'limning bosh bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limdan boshlash kerak maqola shu haqida malumot beradi.

**Kalit so'zlar :** xorijiy til, psixalogik munosabat, interfaol o'yin, ta'limiy o'yin, tarbiyachi pedagog, tarbiyalanuvchi, kommunikatsion texnalogiya, multimedya.

Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilini o'rganishdan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Bizning yurtimizda ham ushu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan. Xususan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori hamda 2013-2014-yil o'quv yilidan boshlab umum ta'lim maktablarining barcha sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatilishi buning isbotidir.

Hozirgi kunda nafaqat matab,litsey,kollej o'quvchilari va oliv yurtlari talabaliga balki MTT tarbiyalanuvchilariga chet tilini,xususan,ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan.Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish kerak. Bu orqali rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish, jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va ma'suliyatli vazifadir. Til o'rganish yosh davrlarga bog'liq jarayon hisoblanib,bolalar tilni kattalarga nisbatan tez va oson o'zlashtiradilar.Maktabgacha yoshdagi bolalar so'zlarni ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydilar.Bu borada ayniqsa, o'yin faoliyati kichik yoshdagi bolalarga ta'lim va

tarbiya berishning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bog'cha yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufayli bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. O'yin bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratishi kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o'yindir. Bu mashg'ulot bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga , atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi . Shu sababli ota-onada va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Faqatgina ushbu shakl orqali siz ijobiy natijalarga erishishingiz va bolada chet tiliga nisbatan ijobiy musosabatlarini shakllantirishingiz mumkin. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarini chalish, qo'shiqlar kuylash, sher aytish, vidiolar tomosha qilish , qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi.Chet tilini o'rgatishda bir xil metodlardan foydalanish bolada zerikish paydo qiladi. Ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki,bola stolda o'tirib kitob va daftarni varaqlamasligi kerak. Jarayon qiziqarli va bolalarni o'ziga jalb qilishi kerak. O'yin faoliyati eng sodda iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga yordam beradi. Chet tilini o'qitishda o'ynash ta'lim faoliyatiga zid emas balki u bilan organik ravishda bog'liqdir. Bolalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida etiborni jamlashi va egallab olishi qiyin. Shu sababli tarbiyachi bolalarni darsga jalb qilishi va moslashuvchan sinf atmosferasini yarata olishi zarur. Guruhda tarbiyachi dars boshida tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda inglischa qo'shiqni va uning ohangiga mos ravishda biroz raqs tushadilar. Bu o'z-o'zidan ularning tanalarini chiniqtirib , yanada tetik bo'lishga va qo'shiq so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Tarbiyachi pedagoglar ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnalogiyalarini yaxshi bilishi va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnalogiyalardan foydalanib o'rganish va o'rgatish eng samarali usullardan biridir. Bu jarayonda jumladan kampyuterlardan foydalanganda bolalar chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni , kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin.

Bugungi kunda MTT da interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda . Ma'lumki mashg'ulotning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish , diqattini jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishni taminlaydi.

Multfilmlar . Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushinishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Multimediya orqali o'qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bundan bolaning qiziqishini yuqori darajaga ko'tarish va ularning etiborini uzoq vaqt jalg qilib turish mumkin. Bolalar o'rtasida musobaqalar juda ham muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Ana shundagina har bir bolada motivatsiya, tilga bo'lgan qiziqish uyg'onadi. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushintirib borilishi darkor. Kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas , qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakdagi oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib hizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonidagi har bir inson rivojlanishi, ya'ni ularning kelajakda ona yurtga munosib farzand, kuchli shaxs bo'lib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Chet tillarini o'rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ularning malakali kadr bo'lib yetishishi va jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo'lib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir.

## References

1. Astafieva M.D. Holidays for children learning English. - M.: Mozaika-sintez, 2009.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Theory and practice of teaching foreign languages. Primary school: methodological guide.-M.: Iris-press, 2004.

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

3. Guseva L.P. We play, teach, master - we want to know English. - Rostov n / a: Phoenix, 2009.

4. Zemchenkova T.V. English for preschool children. - M.: VAKO, 2008.

5. Ivanova M.V. English for children. - M.: AST: Astrel, 2009.